

## XURSHID DO'STMUHAMMAD IJODIDA BADIY TASVIR MASALASI

*PhD Rahmonova Xurshida,*

*O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligidagi badiiy tasvir masalasi nasriy asarlar misolida atroflicha o'rganildi. Badiiy tasvirning asosi bo'lgan obraz, psixologik tasvir, peyzaj, qahramon nutqi masalalarining nazariy asoslari o'rganilib, adib Xurshid Do'stmuhammad ijodi bo'yicha tadqiq qilindi.

**Kalit so'zlar:** badiiy tasvir, qahramon psixologiyasi, peyzaj, badiiy asar tili, ichki nutqning dialogik shakli, yozuvchining g'oyasi

**Аннотация.** В данной статье вопрос художественного образа в узбекском литературоведении подробно исследован на примере прозаических произведений. Изучены теоретические основы вопросов образа, психологического образа, пейзажа, речи героя, составляющих основу художественного образа, исследовано творчество писателя Хуршида Дустмухаммада.

**Ключевые слова:** художественный образ, психология героя, пейзаж, язык художественного произведения, диалогическая форма внутренней речи, писательская мысль.

**Abstract.** In this article, the issue of artistic image in Uzbek literary studies was studied in detail on the example of prose works. The theoretical foundations of the issues of image, psychological image, landscape, hero's speech, which are the basis of the artistic image, were studied, and the work of the writer Khurshid Dostmuhammad was researched.

**Key words:** artistic image, hero's psychology, landscape, language of artistic work, dialogue form of inner speech, writer's idea

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiiyatining muhim jihatlaridan yana biri bu tasvidir. Bunda peyzaj, badiiy asar tili, psixologik tasvir, qahramon psixologiyasini ochib berish vositalari, yozuvchi uslubi, mahorati bir-biriga uyg'un holda o'rganiladi. Ya'ni ijodkorning hayotni qanday anglashi, anglagan hamda his qilganlarini qay usulda tasvirlab berish mahorati muhim sanaladi. "Badiiy tasvir asar poetikasining tarkibiy qismi bo'lib, u qahramonlarni ta'rif-tavsiflashda, ichki dunyosini tahlil etish va tashqi qiyofasini chizishda, tabiat manzaralarini ifodalashda, voqelikning ma'lum bir qirrasini ochishda yordamlashadigan epizodlarni bayon qilishda, uni umumiy syujet

chizig'ini zanjiriga ulay olishda, personajlar tasavvurini tiklashda namoyon bo'ladi"<sup>1</sup>, deb yozadi K.Hamraev.

Badiiy adabiyotdagi tabiat tasviri peyzaj deb yuritiladi. U adabiy asarda muayyan g'oyaviy-kompozitsion vazifani bajaradi. Peyzaj muammosini maxsus monografik yo'sinda ishlagan M.Sultonova mazkur vositaning badiiy asardagi o'rni masalasi haqida shunday deydi: "Yozuvchi o'z g'oyaviy niyatini faqat qahramonning xatti-harakati orqali emas, balki ularni o'rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o'quvchiga ta'sir etishni, undagi go'zallik tuyg'ularini tarbiyalashni ham nazarda tutadi"<sup>2</sup>. Demak, adabiyotshunos peyzaj tasvirining qahramon xatti-harakatlari bilan uyg'un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga ta'sir o'tkazuvchi ma'rifiy va estetik vazifasini ham uqtirib o'tadi. "Tabiat manzarasi tasviridan turli xildagi maqsad kuzatiladi. U goh voqea sodir bo'lgan faslni bildiradi, goh qahramonlar kayfiyatini ochishga yordam beradi, goh asar voqealarini bir-biri bilan bog'lash vazifasini o'taydi"<sup>3</sup>.

Adabiyotshunos olim M.Qo'shjonov "O'tkan kunlar" romanidagi peyzaj tasviriga Otabek ota-ona orzusiga bo'yin egib, istar-istamay rozi bo'lib Marg'ilonga ketib borish epizodi munosabati bilan murojaat qilgan. Olimning fikricha, Otabek Marg'ilonga jo'narkan, uning ma'yusligi, g'amginligini qirlarda bahorning quvnoqligiga, keng osmon sahnida erkin uchib yurgan qushlarga qarshi qo'yadi. Ya'ni, Abdulla Qodiriy Otabek kayfiyatini, ruhiy holatini ifodalashda bahor fasli manzarasini qahramon ruhiyatiga kontrast holatda tasvirlaydi<sup>4</sup>.

Abdulla Qahhor esa "Sarob" romanining 8-bobi peyzajdan, ya'ni qishning asta-sekin bahorga o'z o'rnini berishi, tabiatning go'zalliklarini tasvirlashdan boshlanadi. Bu peyzaj ikki yoshning – Munisxon va Saidiy muhabbatlarining ta'rifi bilan hamohang tarzda ifodalangan. Xurshid Do'stmuhammadning esa adabiyotshunos sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Xo'ja Maoz qabristoni manzarasi va qahramon ruhiyatining tasviriga ayricha munosabat bildiradi. "Qorong'ulik manba bo'lgan mozoriston changalzorini Marg'ilon ko'chalarida telbalarcha yugurayotgan Otabekning dardi dunyosi deb tasavvur qilaylik. Shu damda Otabekning shuurida kuchli bir yel turdi, "sochlari o'sib soqolig'a qo'shib ketgan bir devona" timsolidagi yovuz kuchlar Otabek shuurini xuddi gulxan yanglig' kavlab to'zitib yubordi; "bitta –yarimta to'kilmay qolgan yaproqlar shitir-shitir to'kilishka oldilar" – Otabekning so'nggi umidlari uzila boshladi; "yel kuchaygandan kuchayib borar" – g'arazgo'ylar tahdidi avjga mindi; Otabekning metin bardoshi ustma-ust bosib kelgan yel bo'kirigiga dosh berolmaslik xavfi tug'ildi – "shox-shabbalar qars-qurs

<sup>1</sup> Hamroev K. Hikoya kompozitsiyasi. – T.: Nurafshon-business, 2020. – B. 47.

<sup>2</sup> Sultonova M. Peyzaj san'ati. – T.: Fan, 1983. – B. 9.

<sup>3</sup> Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Sharq. 2008 – B. 99.

<sup>4</sup> Qo'shjonov M. Saylanma. – T.: Sharq 1982. – B. 59.

sinar”di;”<sup>5</sup>. Munaqqid Otabek ruhiyatidagi tushkunlikni, qalbidagi og‘riqlarni qorong‘ulik, zimiston tun va qattiq shamol, bo‘ron natijasida “qar-qurs” qilib sinayotgan shoxlarga qiyoslaydi. Kumushdan umidini uzgan Otabek ruhiyatining eng og‘ir, musibatli onlari qabriston tasviri bilan parallel qo‘yadi.

Shuningdek, Xurshid Do‘stmuhammad nasrida tabiat va joy tasviri qahramonning ruhiy kechinmalari bilan uzviy ravishda bog‘liqligi hamda badiiy-falsafiy ma’no kasb etishi bilan alohida ajralib turadi. “O‘ktabr yarimlamay qishning nafasi izg‘ib qoldi. Nonushta payti yilt etib borliqni yoritgan quyosh zimda g‘oyib bo‘ldi-qo‘ydi. Peshin edi, qo‘noqqa qaytayotib birpas havoning avzoyini kuzatib turdi. Osmonni paqqos qalin qora bulut qoplay boshlagan, havoning avzoyida pilikning uchicha yorug‘lik belgisi sezilmas, balki o‘zidagi tundlik siyohi bila dov-daraxt, atrof-jovonib, odamlarni-da bosh-oyoq bo‘yashqa boshlagandi”<sup>6</sup>. Ushbu parcha nosirning “Umid guli” hikoyasidan olingan bo‘lib, peyzaj tasviri professor Fitratning Moskvada musofirchilikda kechirgan hayoti, tushkun kayfiyati bilan hamohang tarzda berilgan. Qahramon qalbidagi dard, millat taqdiri boshiga tushishi mumkin bo‘lgan falokatlarni go‘yo osmon oldindan sezgandek uni qora bulut qoplashi, kunduz bo‘lishiga qaramasdan atrofni qora tundlik o‘rab olishi, bu tundlik nafaqat tabiatni, balki odamlar qalbini-da egallab olayotganligi tarzida tasvirlarning berilishi kitobxon ruhiyatini badiiy asar olamiga, uning pafosiga olib kirishga xizmat qilgan. Hikoyada peyzaj shunchaki tabiat tasviri bo‘libgina qolmasdan, balki zamon va makonda ro‘y berayotgan voqealarga adabiy-falsafiy ruh bag‘ishlab, kelajakda o‘zbek xalqining boshiga tushishi mumkin bo‘lgan falokatlarga, noxushliklarga ishora qilingan.

Badiiy tasvirning ajralmas qismlaridan yana biri bu psixologik tasvirdir. Psixologik tasvir o‘z navbatida psixologizmning bir bo‘lagidir. O‘zbek adabiyotshunosligida psixologizm muammosi A.Alimuhamedovning Abdulla Qahhor hikoyalarini psixologik metod asosida tahlil qilib yozgan maqolasidan boshlanadi<sup>7</sup>. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar esa 60-yillardan boshlanadi. Dastlab yuzaga kelgan tadqiqotlarda psixologizm alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan. Balki u yoki bu asarda yaratilgan xarakterlarning psixologik jihatdan ishonchliligi, tabiiyligi yoritilgan, xolos<sup>8</sup>. Psixologizm muammosi 70-yillarga kelib maxsus tadqiqot ob‘ektiga aylangan. N.Shodievnning “Abdulla Qahhorning psixologik mahorati” (“Sarob”, “Sinchalak” asarlari misolida), M.Abdurahmonovanning “Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tahlil mahorati” nomli dissertatsiyalari yuzaga keldi va shu tadqiqotlarning ma’no-mazmunini ifodalovchi bir necha maqola, risolalar e‘lon qilindi. B.Sarimsoqovning

<sup>5</sup>Do‘stmuhammad X. “Xo‘ja Ma‘oz” tasviri – “O‘tkan kunlar” kulminatsiyasi // Yolg‘iz. – T.:Mashhur-press, 2019. – B. 164

<sup>6</sup> Do‘stmuhammad X. Hikoya. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 83.

<sup>7</sup>Alimuhamedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir // Sharq yulduzi. 1947. .№2. – B. 115-137.

<sup>8</sup>Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. – T.: G‘afur G‘ulom, 1962. Qo‘shjonov M., Normatov U. Mahorat sirlari. – T.:1968. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati. Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1966.

“Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri haqida ba’zi mulolohazalar”<sup>9</sup> nomli kitobi yozildi. Bular bevosita xarakterlar ruhiy dunyosini ochish mahorati, yozuvchining uslubi masalalariga bag’ishlangan dastlabki tadqiqotlar bo’lib, N.Shodievning ilmiy ishida Abdulla Qahhorning ikki nasriy asaridagi psixologik vositalar – ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, gallyusinatsiya, tush va psixologik timsollar tahlil etilgan. Shu vositalar tahlili orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari tekshiriladi. M.Abdurahmonovanning dissertatsiyasida esa o‘zbek romanlarida psixologizmning asoschisi Abdulla Qodiriy ijodi va uning psixologik tasvir usullari tadqiq etilgan.

80-yillarga kelib esa H.Umurovning “Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi” nomli monografiyasi e’lon qilindi. Ushbu kitobda psixologizm, psixologik tahlil prinsiplari, xarakterlar psixologiyasini tasvirlash usullari, vositalari, yozuvchi mahorati haqida kengroq fikr yuritilgan<sup>10</sup>. 90-yillarda adabiyotshunos D.Quronovning “Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanida xarakterlar psixologizmi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida qahramonlar ruhiyati davr bilan bog’liqlikda yoritib berilgan<sup>11</sup>. 2000-yillarga kelib Sh.Isaevaning “O‘zbek tarixiy romanlarida xarakterlar ruhiyatini tasvirlash usullari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ruhiyat tasvirining shakllariga e’tibor qaratildi<sup>12</sup>. Bundan tashqari, adabiyotshunos A.Xolmurodovning “Qissada badiiy obraz yaratish” nomli monografiyasining bir fasli “Qissada psixologizm” deb atalgan. Unda psixologizm sifatida inson va tabiat o’rtasidagi munosabat, peyzaj tasviri o’rganilgan<sup>13</sup>. M.Boboxonovning “Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm” nomli dissertatsiya ishida muammoga milliy istiqloq mafkurasi nuqtai nazaridan yondashilgan hamda psixologizm muammosining o‘zbek qissachiligida tutgan o’rni qiyosiy-tipogik, ruhiy tahlil metodlaridan qorishiq foydalanish asosida o’rganilgan. Ishimizda yuqorida nomi keltirilgan adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlaridan ilmiy-nazariy jihatlariga murojaat qilinib, Xurshid Do’stmuhammad nasrini badiiy tahlil qilishda, qiyoslab-chog’ishtirib o’rganishda foydalanildi.

Hozirgi davr o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidida psixologizm yangi odamni tasvirlash, xarakterlar dunyosining o‘ziga xosligi, globallashuv jarayonida inson ruhiy dunyosini anglash va tasvirlash nuqtai nazaridan o’rganilmoqda. O‘zbek nasrida yangicha tamoyillar namoyon bo’lib, bu tamoyillar mavjud milliy-adabiy an’analar bilan jahon adabiyotidagi ilg’or tajriba usullarning o‘zaro sintezi sifatida namoyon bo’layotir. Ularda insonning o‘zi ham anglab yetmagan murakkab tuyg’ulari, hayotga munosabati, zohiriy va botiniy olamni, ruhiyatni xolis va ta’sirchan ifodalash, falsafiy-

<sup>9</sup> Sarimsoqov B. Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri haqida ba’zi mulolohazalar. – T.: Fan, 1976.

<sup>10</sup> Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – T.: Fan, 1983.

<sup>11</sup> Quronov D. Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanida xarakterlar psixologizmi. Filol.fan nomz... diss. – T. 1992.

<sup>12</sup> Isaeva Sh. O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari. Filol.fan. nomz. ...diss. – T. 2001.

<sup>13</sup> Xolmurodov A. Qissada badiiy obraz yaratish mahorati. – T.: Fan, 2006.

psixologik talqin va majoziy obrazlilik ustuvor bo'lmoqda. Adabiy-estetik tafakkurdagi o'zgarishlar asarlarning g'oyaviy mazmuni va mavzu qamrovini kengaytirish barobarida adiblarning individual uslubi, tasvir va ifodadagi betakrorligi va talqin ohanglari rang-barangligini yuzaga keltirmoqda. Bu esa inson ruhiyati va ma'naviy olamini turli rakurslarda ta'sirchan va ishonarli tahlil etishga imkon beruvchi turfa uslubiy-shakliy yo'nalishlarning kengayishiga imkon yaratdi. XXI asr o'zbek nasridagi evrilishlarda janr va uslub munosabati salmoqli o'rin tutadi. Unda an'anaviy va zamonaviy uslub, publitsistik talqin, psixologik tahlil, ijodiy o'ziga xoslik kabi tamoyillarni kuzatish asosida alohida shaxsning ruhiy olamini taftish etish kengaymoqda.

Mustaqillik sharofati tufayli ijod erkinligi, so'z erkinligiga erishildi, yangicha badiiy tafakkur qamrovining kengayishi, o'zgacha adabiy-uslubiy tamoyillarning qaror topishiga imkon yaratdi. Shulardan biri o'zbek nasrida paydo bo'lgan modernizm yo'nalishidir. Akademik B.Nazarov Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqullarning modernizm yo'nalishdagi asarlari xususida shunday yozadi: "So'nggi bosqich o'zbek adabiyotidagi bu yo'nalishlar muayyan yangilanish namunalidir. Ular jahon adabiyotida sodir bo'lgan va bo'layotgan yangiliklarga hamohangdir"<sup>14</sup>. Yangilanayotgan realizm uslubda ijod qilayotgan Xurshid Do'stmuhammadning "Kuza..." va "Yolg'iz" qissalarida shaxs va jamiyat munosabati, xususan, inson tabiatining murakkab qirralari, tafakkuridagi yangilanishlar aks ettirilgan. Davrning qahramonini yaratish orqali qahramonning davrga bo'lgan munosabati yoritiladi. Zero, "Yolg'iz" qissasida qahramon talqinida o'zlik, inson sha'ni, yurt qayg'usi, ma'naviy komillik yo'lidagi fidoyi inson timsoli yetakchilik qilsa, "Kuza..." qissasida insonning hayotni anglashi, yashash tarzi yangicha talqinda o'z aksini topgan. Xususan, Ustoz hayotni ma'rifat orqali anglab, insonlar bir-birining nigohi, kuzatuvlari ta'qibidan qochib qutulsa ham, doimo u Yaratganning kuzatuvida ekanligiga ishora qiladi.

Shu bilan birgalikda globallashuvning yoshlar ongiga ta'siri haqida qayg'uradi. Mavjud an'anayu qadriyatlarni, urf-odatlarini odamgarchilikni bema'nilik, vaqtni behudaga sarflash deb bilgan, o'z maqsadi, orzularini hamma narsadan ustun qo'yadigan, jamiyat va odamlardan begonalashgan shaxs taqdiri yoritib berilgan. 2010 yil qissalari haqida fikr bildirgan adabiyotshunos olim A.Ulug'ov shunday yozadi: "Adabiyotda, har qanday janrning mavqei, maqomi unda inson obrazining gavalantirilishi bilan belgilanadi. O'tgan davrda qissalarda inson haqida, uning murakkab ma'naviy olami, qalbidagi turfa xil o'zgarishlar to'g'risida yangicha qarashlar o'z ifodasini topdi va ular badiiy salmoqdor asar sifatida e'tibor qozondi. Xurshid Do'stmuhammadning "Kuza...", "Men – sensiz, sen – mensiz", Nosirjon Jo'raevning "Noyabr kuyi", Abdunabi Abdievning "Muallaq odam"ida voqelikka va

<sup>14</sup> Nazarov B. Adabiy ta'sir va tipologik yaqinlikni o'rganishning ayrim metodologik masalalariga doir. O'zbek adabiyoti, ta'sir va tipologiya. – Toshkent: Muharrir, 2013. – B. 15.

inson dunyosiga o'ziga xos yondashilgani, uning qalbini taftish, tahlil etish diqqat markaziga qo'yilgani qissachilikda yangicha intilish jarayoni davom etayotganidan dalolat beradi"<sup>15</sup>.

“Yolg‘iz” qissasida bosh qahramon Abdulla Qodiriyning vatanparvar shaxs sifatidagi dardlari, millat, xalq kelajagi uchun qayg‘usi, odamlar ongiga ta’siri, ularning yashash tarzini yaxshilash uchun qilgan harakatlari, fikrlari mustabid davrning adolatsizliklariga qarama-qarshi o‘laroq tasvirlanadi. Davrning Qodiriy ruhiyatiga ta’siri, qahramon tuyg‘ulari, fikrlari o‘zbek jadidining ma’naviy-ruhiy olamini mufassal bayon qilishda yordam bergan.

Asarda ichki nutqning dialogik shakli, ichki monolog qahramon ruhiyatining murakkabliklarini ochib berishda alohida o‘rin egallaydi. Adabiyotshunos N.Shodiev ichki monologning bir necha turlarini farqlaydi: “Monolog-xotirada qahramon o‘z o‘tmishini, boshidan kechirgan va boshqa psixik hodisalarni eslasa, monolog-muhokamada yozuvchi personajning muhim va zarur masalalar bo‘yicha fikrlarini umumlashtirib beradi, monolog-mulohazada qahramonning individual, psixologik xususiyatlari aks etsa, monolog-orzuda personajning intilishlari va orzu-havaslarini ifodalangan bo‘ladi”<sup>16</sup>. Adabiyotshunos D.Quronov esa monolog, ya’ni ichki nutq haqida shunday yozadi: “...badiiy adabiyotda “ichki nutq”ning dialogik shaklidan ham foydalaniladi. Odatda, bu holda personajning xayolan kim bilandir bahs-munozarasini yo ruhiyatidagi ikkiga ajralish – o‘z-o‘zi bilan kurashini tasvirlash orqali holat dramatiklashtiriladi”<sup>17</sup>. Xurshid Do‘stmuhammad ham Abdulla Qodiriy ruhiyatini ochishda ichki nutqning dialogik shaklidan bir necha o‘rinlarda foydalangan. Qodiriy obrazi ichki nutqida, mulohazalarida ko‘proq o‘z asari qahramoni Yusufbek hoji bilan suhbat quradi. O‘ylaganlarini unga aytadi, u bilan dardlarini baham ko‘radi, uning aqlu zakovatiga ishonadi.. Ayniqsa, qamalgan davrida o‘y-xayollarida ko‘proq Yusufbek hoji bilan suhbat quradi, ba’zida ko‘z o‘ngida Otabek qiyofasi gavdalanadi. Shunday paytlarda uzoqlardan qulog‘iga mungli azon tovushi eshitilardi. Azon bu o‘rinda Qodiriy qalbidagi najot, halovat vazifasini o‘tagan.

Xurshid Do‘stmuhammad o‘z asarlarida qahramonlar o‘y-fikrlari, tuyg‘ularini yangicha uslubda, yangicha yo‘nalishda ifodalashga urinadi. Uning asarlarida qahramonlar tirik insondek harakatlanadi, kitobxonni ishontiradi, qalbiga kirib boradi. Adibning hikoya va qissalarida peyzaj tasviri, muallif bayoni, qahramonning dialogik nutqi, ichki monolog ham qahramon ruhiyati kengroq yoritib berishga xizmat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Do‘stmuhammad X. Hikoya. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.

<sup>15</sup> Ulug‘ov A. Qissalarda qalb aksi (2010 yil qissalarini o‘qib) // Sharq yulduzi. 2011. №4. – B.137

<sup>16</sup> Shodiev N. Ruhiyat rassomi. – T.: Fan, 1977. – B. 14 - 15.

<sup>17</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. –B.251.

2. Nazarov B. Adabiy ta'sir va tipologik yaqinlikni o'rganishning ayrim metodologik masalalariga doir. O'zbek adabiyoti, ta'sir va tipologiya. – Toshkent: Muharrir, 2013.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004.
4. Sarimsoqov B. Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri xaqida ba'zi mulohazalar. – T.: Fan, 1976.
5. Sultonova M. Peyzaj san'ati. – T.: Fan, 1983.
6. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. – T.: Fan, 1983
7. Xolmurodov A. Qissada badiiy obraz yaratish mahorati. – T.: Fan, 2006.
8. Shodiev N. Ruhiyat rassomi. – T.: Fan, 1977.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademiya nashri, 2018.
10. Qo'shjonov M. Saylanma. – T.: Sharq 1982.
11. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – T.: Abdulla Qodiriy, 1994.
12. Hamroev K. Hikoya kompozitsiyasi. – T.: Nurafshon-business, 2020.

### **Dissertatsiyalar**

1. Do'stmuhammad X. Hozirgi o'zbek hikoyalarida badiiy tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.nomz. ...diss. T.: 1995.
2. Quronov D. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida xarakterlar psixologizmi. Filol.fan nomz... diss. – T. 1992.
3. Isaeva Sh. O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari. Filol.fan. nomz. ...diss. – T. 2001

### **Maqolalar**

1. Alimuhamedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir // Sharq yulduzi. 1947. №2. – B. 115-137.
2. Do'stmuhammad X. "Xo'ja Ma'oz" tasviri – "O'tkan kunlar" kulminatsiyasi // Yolg'iz. – T.: Mashhur-press, 2019. – B. 164
3. Ulug'ov A. Qissalarda qalb aksi (2010 yil qissalarini o'qib) // Sharq yulduzi. 2011. №4. – B.137